

JINOYAT-IJROIYA QONUNCHILIGI VA XALQARO HUQUQIY HUJJATLAR

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
kunduzgi ta‘lim 3-bosqich 333-guruh
kursanti Qurbonov Asilbek Asror o‘g‘li*

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahkumlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro konvensiyalar va qoidalar, O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonunchiligini xalqaro huquq hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda takomillashtirish, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining himoyasini ta‘minlash borasida so‘ngi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, mahkumlar qonunda belgilangan cheklashlardan tashqari O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bilan bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligi, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning roziligi bilan ularga psixologik yordam ko‘rsatilishi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Jinoyat-ijroiya qonunchiligi, xalqaro huquqiy hujjatlar, implementatsiya qilish, differentsial tarzda yondoshuv, umume‘tirof etilgan prinsiplar, xalqaro huquq va standartlar, inson huquqlarini himoya qilish, minimal standartlar, qonun ustuvor bo‘lgan davlat.

Annotation: This article discusses international conventions and regulations aimed at protecting the rights of prisoners, the improvement of the criminal-executive legislation of the Republic of Uzbekistan taking into account international law and advanced foreign experiences, the reforms implemented in recent years to ensure the protection of the rights, freedoms and legitimate interests of prisoners, the fact that prisoners have the same rights and freedoms as all citizens of the Republic of Uzbekistan, except for the restrictions established by law, and the provision of psychological assistance to persons sentenced to imprisonment with their consent.

Keywords: Criminal and executive legislation, international legal instruments, implementation, differentiated approach, generally recognized principles, international law and standards, protection of human rights, minimum standards, rule of law.

Аннотация: В данной статье разъясняются международные конвенции и нормативные акты, направленные на защиту прав заключенных, совершенствование уголовного законодательства Республики Узбекистан с учетом международного права и передового зарубежного опыта, реализованные в последние годы реформы по обеспечению защиты прав, свобод и законных интересов заключенных, то, что заключенные имеют те же права и свободы, что и все граждане Республики Узбекистан, за исключением ограничений,

установленных законом, а также психологическая помощь лицам, осужденным к лишению свободы.

Ключевые слова: Уголовное право, международно-правовые документы, реализация, дифференцированный подход, общепризнанный принцип, международное право и стандарты, защита прав человека, минимальные стандарты, правовое государство.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddimasida inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e’lon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatimizni anglagan holda, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e’lon qilamiz, deya qayd etilgan.¹

Bosh qomusimizning 25-moddasida “Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir. O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlanadi” deb belgilandi. Uning mazmuni shundaki, hech kimni ataylab hayotdan mahrum qilish mumkin emas. Ushbu norma “Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risida”gi konvensiyada, shu bilan birga, “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt”da ham nazarda tutilgan. shaxsning yashash huquqi aynan tug‘ilgan paytdan boshlab vujudga keladigan tabiiy va daxlsiz huquq, deb e’tirof etiladi va u davlatchilik va qonunlar mavjudligidan qat’i nazar, shaxsga tegishlidir. Bundan tashqari Konstitutsiyasimizning 27-moddasida Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas. Hibsga olingan, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi. Shaxs sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxsni ushlab chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilish shart. 28-moddada esa Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi hamda inson shaxsigacha xos bo‘lgan sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga ega. Shaxsning

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrirda): T-2023, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son, <https://lex.uz/docs/-6445145>;

sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilgan.²

Mahkumlarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan bir qancha xalqaro huquqiy hujjatlar mavjud. Bular “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt” (1966-yil), “Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi konvensiya” (1984-yil), “Barcha shaxslarni qiynoq va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazolardan himoya qilish to‘g‘risidagi deklaratsiya” (1975-yil), “BMTning mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari (Nelson Mandela qoidalari, 2015-yil), “Qamoq jazosi bilan bog‘liq bo‘lmagan chora-tadbirlar bo‘yicha minimal standart qoidalari” (Tokio qoidalari, 1990-yil), “BMTning mahkum ayollarga munosabati va huquqbuzar ayollarga nisbatan qamoqqa olinmaslik choralari bo‘yicha qoidalari” (Bangkok qoidalari, 2010-yil), “Ozodlikdan mahrum etilgan voyaga yetmagan bolalarni himoya qilish bo‘yicha BMT qoidalari” (1990-yil), “Mahkumlar bilan muomala qilishning asosiy prinsiplari” (1990-yil) kabilardir.

Yuqoridagi xalqaro huquq va standartlarni inobatga olgan holda jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirish, mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mahkumlar bilan muomala qilish standartlari bo‘yicha xalqaro hamjamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan hujjatlar ijrosini milliylashtirish hamda insonparvarlashtirish va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirilishiga, inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo‘yicha mamlakatimizda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

BMTning 1955-yildagi “Mahbuslar bilan muomala qilish bo‘yicha minimal standart qoidalari” mahkumlar, ushlab turilganlar hamda qamoqqa olinganlarni qamoqda saqlash yuzasidan universal e‘tirof etilgan minimal standartlar hisoblanadi. Bu qoidalar butun dunyoda jazoni ijro etuvchi muassasalar bilan ishlashga doir qonunlar, siyosat va amaliyotni ishlab chiqish nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega.³

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-iyunda “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir

² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrirda): T-2023, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son, <https://lex.uz/docs/-6445145>;

³ Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-7352133>

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5163-son qarori qabul qilinishi natijasida mamlakatimizda bir qancha ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etildi hamda manzilli ishlar amalga oshirildi. Bunda Nelson Mandela qoidalarining asosiy tamoyillari hamda ushbu qoidalarga kiritilgan o‘zgartirishlar, tegishli huquqbuzarliklarni aniqlash, mahkumlarni qiynoqlar va shafqatsiz muomaladan himoya qilish yuzasidan jazoni ijro etish muassasalari xodimlarining bilimini oshirish va ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Aslini olib qaraganda ham insonni qiynoqqa solishdan maqsad uning shaxsi va sha‘nini oyoqosti qilish, or-nomusi va qadr-qimmatini toptash hamda xo‘rlashdir. Shuning uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining teng huquqli a‘zosi hisoblanuvchi O‘zbekiston Respublikasida ham qiynoqlarni muayyan odamlar tomonidan boshqalarga nisbatan qo‘llaniladigan eng g‘ayriinsoniy qilmish sifatida har doim qoralab kelmoqda.⁴

Qiynoqlar haqida so‘z borganda, 1997-yil 26-iyun – Qiynoq qurbonlarini qo‘llab-quvvatlash xalqaro kuni deb BMT Bosh Assambleyasi tomonidan e‘lon qilinganligini ta‘kidlashimiz lozim. 26-iyun sanasida dunyo miqyosida qiynoqlarga butunlay barham berish hamda BMTning “Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llashga qarshi konvensiyasi” yanada samarador ishlashini ta‘minlashga qaratilgan turli tadbirlar o‘tkaziladi.

BMT Inson huquqlari kengashining “Terrorizmga qarshi kurashish sharoitida inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rag‘batlantirish va himoya qilish” bo‘yicha maxsus ma‘ruzachisining O‘zbekistonga tashrifi yakunlari yuzasidan tavsiyalari berildi. Tavsiyalariga ko‘ra tuzilgan “Milliy harakatlar rejasi”ga muvofiq ishlab chiqilgan “Yo‘l xaritasi”ga ko‘ra, jazoni ijro etish muassasalarida saqlash sharoitlarini yaxshilash, shuningdek, din va e‘tiqod erkinligi huquqini ta‘minlash maqsadida Nelson Mandela qoidalariga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi muvofiqligini tahlil qilish vazifasi yuklatilgan.

Ushbu vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarni saqlash sharoitlarini mahkumlar bilan muomala qilish bo‘yicha minimal standart qoidalari (Mandela qoidalari) talablari asosida ko‘rib chiqilib, mahbuslarni saqlash sharoitlari bosqichma-bosqich ushbu qoidalarga muvofiqlashtirilmoqda. Mahkumlar huquq va majburiyatlarining xalqaro standartlar asosida, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini inobatga olgan holda jazoni ijro etish tizimi tubdan takomillashtirilib, yillar davomida to‘planib qolgan muammolar o‘z yechimini topmoqda.

⁴ Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.06.2021-y., 07/21/5163/0600-son:
<https://lex.uz/docs/-5475607>

Milliy qonunchiligimizni xalqaro huquq va standartlarga muvofiqlashtirishga oid ishlar doirasida xususan, jazoni ijro etish muassalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarga sud hukmiga binoan saylash huquqi berildi. Umumiy, qattiq, maxsus tartibli va tarbiya koloniyalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarning yaqin qarindoshlari bilan telefon so'zlashuvlari, uchrashuvlari va jo'natma qabul qilishlari soni ikki barobar ko'paytirildi. Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning roziligi bilan ularga psixologik yordam ko'rsatilishi va ruhiy holati buzilgan vaqtda sodir etilgan tartibbuzarligi uchun intizomiy jazo choralari qo'llanilmasligi kafolatlandi.

Jazoni ijro etish departamenti tizimidagi jazoni ijro etish muassasalarini ham xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida xalq tomonidan "Toshturma" deb atalib kelingan va salbiy ta'riflangan UYA-64/1 tergov hibsxonasi yopilib, uning o'rniga xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan Toshkent viloyatining Zangiota tumanida yangi Markaziy tergov hibsxonasi qurilib, foydalanishga topshirildi. Shu singari xalq tomonidan salbiy ta'riflangan Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan "Jasliq" koloniyasi tugatildi va unda saqlangan mahkumlar respublikaning boshqa koloniyalariga o'tkazildi.⁵

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2019-yil 13-iyundagi 156-sonli buyrug'iga binoan shikoyatlarni ko'rib chiqish, shuningdek fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi hollarini o'z tashabbusi bilan tekshirish chog'ida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil hamda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi jazoni ijro etish muassasalariga moneliksiz kirish huquqiga egaligi belgilandi. Jazo muddatini o'tayotgan shaxslarning mavjud muammolarini o'rganish va ijobiy hal qilish maqsadida Jazoni ijro etish departamenti rahbariyati tomonidan sayyor qabullar o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ga va prokurorga mahkumlarning ariza hamda shikoyatlari uchun mo'ljallangan alohida pochta qutilari o'rnatilgan. Jazoni ijro etish muassasalarida qonunlarga rioya etilishi prokuratura organlari va Ombudsman tomonidan muntazam ravishda o'rganib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-dekabrda "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-735-sonli qonuni bilan Jinoyat-ijroiya qonunchiligida

⁵ Rustambayev M. "O'zbekiston: Jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirishga oid yangi islohotlar va ularning amaliy natijalari", www.uzembassy.kz.

voyaga yetmaganlarga nisbatan insonparvarlikni kuchaytirish maqsadida, xususan Jinoyat-ijroiya kodeksiga o‘n uch yoshdan qo‘llaniladigan tarbiya koloniyasida intizomiy bo‘linmaga kiritib qo‘yish tariqasidagi intizomiy jazo o‘n to‘rt yoshga o‘zgartirildi. Bu mamlakatimiz jinoyat va sud ishlarini yuritish jarayonida voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish yo‘lidagi muhim qadamlardan bo‘ldi.⁶

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PF-6196 sonli Farmoni⁷ hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050 sonli Qarori⁸ asosida Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti qayta tashkil etilib, tizimda inson omilini kamaytirish va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari joriy etish orqali jazoni ijro etish tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab berildi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 15-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘RQ-817-sonli Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘RQ-938-XII sonli Qonuni “ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning jazoni ijro etish muassasalarida jazoni o‘tash davrida bajaradigan har qanday ishi, agar ushbu ish bajarilgan davr uchun jazoni ijro etish muassasasi tomonidan ijtimoiy soliq to‘langan bo‘lsa, mahkumning ish stajiga qo‘shib hisoblanishini nazarda tutuvchi yangi norma” bilan to‘ldirildi.⁹ Shundan kelib chiqqan holda ushbu normani amalga oshirishning aniq mexanizmini belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi 96-moddasi “Ijtimoiy soliqni to‘lash va mahkumlarning pensiya ta‘minoti” tarzida o‘zgartirildi va uning birinchi qismi “Jazoni ijro etish muassasalarining ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar mehnatiga haq to‘lashga doir

⁶ Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.12.2021-y., 03/21/735/1141-son: <https://lex.uz/docs/-5764516>;

⁷ Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 06/24/10/0031-son; 11.04.2025-y., 06/25/65/0331-son: <https://lex.uz/ru/docs/-5344118>;

⁸ Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 06/21/6196/0240-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.01.2024-y., 06/24/10/0031-son; 11.04.2025-y., 06/25/65/0331-son: <https://lex.uz/ru/docs/-5344118>;

⁹ Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.02.2023-y., 03/23/817/0091-son: <https://lex.uz/uz/docs/-6384468>

xarajatlari ijtimoiy soliq bo‘yicha soliq solish obyektidir” deb belgilandi. Bundan tashqari mahkumlarning tarjimon bilan bir qatorda surdo tarjimon xizmatidan foydalanish huquqi hamda mahkumlarga nisbatan tinchlantirish ko‘ylagini qo‘llash mumkin emasligi ham O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-817-sonli Qonuni bilan qat’iy belgilab qo‘yildi.¹⁰

Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatini kamsituvchi muomala yoxud jazo turlarining qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yilmasligi qat’iy mustahkamlandi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida “Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa turdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas” deb belgilangan.¹¹

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida davlat jinoyat-ijroiya qonunchiligida ozodlikdan mahrum etilgan I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mo‘ljallangan umumiy turar joylar maxsus vositalar va moslamalar bilan jihozlangan bo‘lishi kerakligi belgilab qo‘yildi va “Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar ishdan bo‘sh soatlarida, tungi dam olish uchun ajratilgan vaqtdan tashqari, kinofilmlar va teleko‘rsatuvlar ko‘rish, radio eshittirishlar eshinish huquqiga ega” ekanligini belgilash orqali oldingi cheklovlar olib tashlandi hamda “Mahkumlarning tuzalish yo‘liga o‘tganligini aniqlash mezonlari” aniq belgilandi.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab xorijiy mamlakatlarda ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tayotgan mahkumlarning huquqiy holati va ularga ta’sir etishning eng samarali, ayni paytda, istiqbolli usul va metodlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish masalalari turlicha hal etilgan. Jumladan, Finlandiya, Shveysariya, Gollandiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Amerika Qo‘shma Shtatlarida jazoni ijro etuvchi muassasa va organlarning har xil tizimlarini shakllantirish, jazoni o‘tash davrida mahkumlar bilan muomala qilishning ilmiy asoslangan metodlarini ishlab chiqish va qo‘llash, mahkumlarni toifalash hamda ularga nisbatan differentsial tarzda yondoshuv borasida boy amaliy tajribalar to‘plangan. Xorijiy tajribalardan to‘g‘ri xulosalar chiqargan holda mamlakatimizning jazoni ijro

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi, T-2023 “Yuridik adabiyotlar publish”: <https://lex.uz/acts/-163629>

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrirda): T-2023, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son, <https://lex.uz/docs/-6445145>;

etish muassasalarida jazo muddatini o‘tayotgan mahkumlarning asosiy huquq va majburiyatlarining xalqaro huquq va standartlar, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini inobatga olgan holda jazoni ijro etish tizimi tubdan takomillashtirilib, yillar davomida to‘planib qolgan muammolarga birin-ketin yechim topilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, jinoyat-ijroiya qonunchiligini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar birinchi navbatda mahkumlar qonunda belgilangan cheklashlardan tashqari O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bilan bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligi, sud tomonidan tayinlangan ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazo muddatini o‘tayotgan vaqtda tuzalish yo‘liga o‘tgan mahkumlarga nisbatan rag‘batlantirish choralari yanada ko‘paytirilayotganligi, mahkumlarning huquqlari, erkinkliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilayotganligiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T-2023 “O‘zbekiston” nashriyoti;
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, T-2023 “Yuridik adabiyotlar publish”;
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi, T-2023 “Yuridik adabiyotlar publish”;
4. Mirzayev N. T-2016, “Jinoyat-ijroiya huquqi”;
5. Isroilov X. T-2014, “Xalqaro jinoyat huquqi”;
6. Beqboev S. T-2018 “Jinoyatlarni jazolashda xalqaro huquqning roli”;
7. Bassiouni, M. C. Chicago-1999, “International Criminal Law: A Guide for Judges”;
8. Rustambayev M. “O‘zbekiston: Jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirishga oid yangi islohotlar va ularning amaliy natijalari”, www.uzembassy.kz.